



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 134 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIIY IJTIMOIIY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIIY IQTISODIYOTNING ASOSIIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	



TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)



Turayev Baxtiyor Ergashevich

i.f.f.d., dots.v.b.

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Buxgalteriya hisobi va statistika
kafedrasi katta o'qituvchisi

Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: aymatovs@mail.ru

ORCID: [0009-0004-5982-9638](https://orcid.org/0009-0004-5982-9638)

Annotatsiya: Maqolada Surxondaryo viloyati kesimida transport tarmog'i va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari (qurilish, qishloq xo'jaligi, sanoat) o'rtasidagi bog'liqlik Bosh komponentalar usuli (PCA) orqali modellashiriladi. Standartlashtirilgan ko'rsatkichlardan hosil qilingan $[[PC]]_1$ — "umumiy tarmoqlararo o'sish indeksi" transport xizmatlari hajmidagi variatsiyaning katta qismini izohlaydi, multikollinearlik muammosini bartaraf etadi va sektorlararo sinergiyani miqdoriy baholashga imkon beradi.

Kalit so'zlar: transport tarmog'i; raqobatbardoshlik, bosh komponentalar usuli (PCA), standartlashtirish, qurilish, qishloq xo'jaligi, sanoat, sektorlararo integratsiya, Surxondaryo.

Abstract: The paper models the linkage between the transport network and core sectors (construction, agriculture, industry) in Surkhondaryo using Principal Components Analysis (PCA). Based on standardized variables, $[[PC]]_1$ —an integrated cross-sector growth index—accounts for most variation in transport service volume, mitigates multicollinearity, and quantifies transport network, competitiveness, Principal Components Analysis (PCA), standardization, construction, agriculture, industry, cross-sector integration, Surkhondaryo. synergy driving transport demand.

Key words: Статья моделирует взаимосвязь между транспортной сетью и ключевыми секторами экономики (строительство, сельское хозяйство, промышленность) Сурхандарьинской области с помощью метода главных компонент (PCA). Стандартизированные показатели формируют $[[PC]]_1$ — интегральный индекс межсекторного роста, который объясняет основную долю вариации объема транспортных услуг, устраняя мультиколлинеарность и количественно оценивая синергию между отраслями.



Аннотация: Статья моделирует взаимосвязь между транспортной сетью и ключевыми секторами экономики (строительство, сельское хозяйство, промышленность) Сурхандарьинской области с помощью метода главных компонент (PCA). Стандартизированные показатели формируют [PC]₁ — интегральный индекс межсекторного роста, который объясняет основную долю вариации объема транспортных услуг, устраняя мультиколлинеарность и количественно оценивая синергию между отраслями.

Ключевые слова: транспортная сеть, конкурентоспособность, метод главных компонент (PCA), стандартизация, строительство, сельское хозяйство, промышленность, межотраслевая интеграция, Сурхандарья.

KIRISH

Transport tarmog'i milliy iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishida hamda hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega sohalardan biridir. Transport xizmatlari nafaqat tovar va xizmatlarning ichki hamda tashqi bozorlarga yetkazib berilishini ta'minlaydi, balki iqtisodiyotning barcha real sektorlarida — qurilish, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi va samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois transport infratuzilmasining rivojlanish sur'atlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida tarmoqlararo integratsiya jarayonlari jadallashib, turli tarmoqlar o'rtasida o'zaro ta'sir kuchayib bormoqda. Qurilish sohasi infratuzilma obyektlarini, jumladan, transport tarmog'ini rivojlantirishda asosiy kapital investitsiya manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Qishloq xo'jaligi esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga yetkazishda transport xizmatlariga katta ehtiyoj bildiradi. Sanoat tarmog'i esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarni taqsimlash va logistika tizimini rivojlantirish orqali transport sektoriga sezilarli yuklama beradi. Natijada transport xizmatlari hajmi ushbu tarmoqlarning rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bunday ko'p qirrali va murakkab o'zaro bog'liqliklarni aniqlashda oddiy korrelyatsion tahlil yoki chiziqli regressiya har doim ham to'liq va aniq natija bera olmaydi, chunki bunday ma'lumotlarda ko'pincha multikollinearlik muammosi mavjud bo'ladi. Aynan shunday vaziyatda Bosh komponentalar usuli (Principal Components Analysis — PCA) samarali vosita sifatida qo'llaniladi. Ushbu usul bir nechta yuqori darajada o'zaro bog'langan omillarni kam sonli mustaqil komponentalarga ajratish orqali tahlil qilish imkonini beradi. Bu nafaqat statistik modelning barqarorligini oshiradi, balki iqtisodiy talqin qilishni ham yengillashtiradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — 2010—2024-yillar davrida Surxondaryo viloyati misolida transport tarmog'i hajmiga qurilish, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining birgalikdagi ta'sirini Bosh komponentalar usuli orqali modellash va ularning umumiy rivojlanish indeksini shakllantirishdir. Tadqiqot davomida sektorlararo o'zaro bog'liqlik darajasi aniqlanadi, transport xizmatlari hajmiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanadi va ushbu bog'liqlikni izohlovchi iqtisodiy model taklif qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transport tarmog'i iqtisodiyotning barcha real sektorlarida ishlab chiqarish, ta'minot va iste'mol jarayonlarini birlashtiruvchi strategik tizim bo'lib, uning rivojlanish darajasi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nazariy jihatdan transport sektori ishlab chiqarishning uchinchi muhim omili sifatida ko'riladi, chunki u mehnat va kapital resurslarining hududlar bo'ylab taqsimlanishini ta'minlaydi. [1]

Ko'plab ilmiy izlanishlarda transport tarmog'ining qurilish, qishloq xo'jaligi va sanoat bilan o'zaro bog'liqligi ta'kidlangan. Masalan, J. Rodrigue va boshqalar [2] fikricha, infratuzilma qurilishi nafaqat transport tizimini kengaytiradi, balki iqtisodiy faoliyatning boshqa tarmoqlarida ham investitsion faollikni oshiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozorga yetkazib berishda logistika tarmoqlari rivojlanish darajasi eksport hajmi va narx barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi [3].

Sanoat tarmog'i esa transport tizimining asosiy yuk tashuvchilari sifatida maydonga chiqadi. UNIDO hisobotiga ko'ra, ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan yuk aylanmasi hajmi o'rtasida chiziqli va ba'zi hollarda eksponensial bog'liqlik kuzatiladi. Shu sababli, sanoat ishlab chiqarishidagi o'sish transport infratuzilmasiga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshiradi.

O'zbekiston misolida transport tarmog'i va boshqa real sektorlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalalari bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, A. Karimov va boshqalar [4] qurilish ishlari hajmi bilan avtomobil transporti yuk aylanmasi o'rtasida kuchli korrelyatsiya mavjudligini aniqlagan. Shuningdek, M. Xolmatov [5] qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish xarajatlari va transport xizmatlari samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni statistik tahlil qilgan.



Metodologik jihatdan, bunday tarmoqlararo bog'liqliklarni o'rganishda Bosh komponentalar usuli (PCA) keng qo'llaniladi. I. Jolliffe [6] ta'rificha, PCA bir nechta yuqori korrelyatsiyaga ega o'zgaruvchilarni oz sonli, bir-biridan mustaqil komponentalarga ajratish orqali multikollinearlik muammosini bartaraf etadi. Iqtisodiyotda PCA odatda indekslar yaratishda, sektorlararo rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda va makroiqtisodiy prognozlashda samarali vosita sifatida qo'llanadi.

Transport sektori bo'yicha PCA yondashuvi bir qator xalqaro tadqiqotlarda ham uchraydi. Masalan, G. Santos va boshqalar [7] transport tarmog'i zichligi, iqtisodiy o'sish va atrof-muhit yuklamasi o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni PCA orqali modellashtirgan. Shu kabi, X. Chen va Q. Li [8] Xitoy provinsiyalari kesimida transport-logistika tizimi samaradorligini baholashda PCA va regressiya tahlilidan foydalangan.

Mazkur tadqiqotlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, transport tarmog'i va boshqa real sektorlar o'rtasidagi kuchli o'zaro bog'liqlik iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. Shu bois, tarmoqlararo integratsiya jarayonlarini modellashtirish va monitoring qilish strategik ahamiyatga ega bo'lib, bunday tahlillarda PCA usuli amaliy jihatdan samarali natija beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda 2010—2024-yillar oralig'idagi Surxondaryo viloyati bo'yicha to'plangan yillik makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Hududiy statistika boshqarmasi hamda ochiq manbalardagi iqtisodiy hisobotlardan olindi (1-jadval).

1-jadval. Transport tarmog'iga ta'sir etuvchi omillar¹

Yillar	Transport xizmatlari hajmi (mlrd so'mda) ^y	Qurilish ishlari hajmi (mlrd so'mda) ^{x₁}	Qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi (mlrd so'mda) ^{x₂}	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'mda) ^{x₃}
2010	234,3	335,9	2286,8	756,4
2011	300,2	470,6	4099,6	925,8
2012	383,6	605,3	4825,7	1101,8
2013	485,9	849,5	5411	1321,4
2014	622,3	1051,5	6761,9	1615,3
2015	732,9	1351,3	8218	1910,7
2016	870,2	1554,8	8737,2	2200,7
2017	932	1827	11608,1	2356,4
2018	996,6	2879,7	15046,2	3234,7
2019	1150	3979,7	17844,1	4231,3
2020	1252,6	4774,7	19424	5322,7
2021	1608,4	5868,4	23415,5	6675,3
2022	1922	6521,9	26755,7	7229,8
2023	2650,1	7596,5	32849,3	8848,6
2024	3096,7	8513,6	35773,1	13819,8

1-jadvaldagi o'zgaruvchilar transport tarmog'iga ta'sir qiluvchi asosiy tarmoqlar sifatida tanlandi, chunki ularning rivojlanish sur'atlari bevosita transport infratuzilmasi yuklamasi va xizmat hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida tuzilgan korrelatsiya matritsasi barcha o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Qurilish ishlari hajmi, qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi va sanoat ishlab chiqarishi o'zaro ham, transport xizmatlari hajmi bilan ham yuqori darajada bog'liq. Bunday vaziyatda oddiy ko'p o'zgaruvchili regressiya modeli multikollinearlik muammosiga duch kelishi mumkin (2-jadval).

¹ www.surxonstat.uz ma'lumotlari

2-jadval. Korrelyatsiya matritsasi²

Correlation coefficients, using the observations 2010 - 2026 5% critical value (two-tailed) = 0.4821 for n = 17				
Y	X1	X2	X3	
1.0000	0.9979	0.9992	0.9981	Y
	1.0000	0.9990	0.9980	X1
		1.0000	0.9973	X2
			1.0000	X3

2-jadvalda ko'rsatkichlar orasida kuchli multikolleniarlik mavjudligini ko'rish mumkin. Shu sababli, ushbu bog'liqliklarni tahlil qilish uchun Bosh komponentalar usuli (PCA) qo'llash maqsadga muvofiq.

Bosh komponentalar usuli bir nechta yuqori darajada o'zaro bog'langan o'zgaruvchilarni yangi, mustaqil bo'lgan komponentalarga ajratish imkonini beradi.

PCA ni qo'llash uchun turli o'lchov birliklariga ega bo'lgan o'zgaruvchilar bir-biriga taqqoslanadigan shaklga keltirish talab etiladi. Buning uchun standartlashtirish usuli qo'llanildi:

$$Z = \frac{y - \bar{y}}{\sigma_y}, \quad (1)$$

bu yerda, y — dastlabki qiymat, $\bar{y}$ — o'rtacha qiymat, σ_y — standart og'ish.

Standartlashtirish yordamida barcha o'zgaruvchilar o'rtacha qiymati nol, dispersiyasi esa 1 bo'lgan shaklga keltirildi. Bu PCA algoritmidagi barcha o'zgaruvchilar teng og'irlikka ega bo'lishini ta'minlaydi (3-jadval).

3-jadval. Standartlashtirish natijalari³

Yillar	$Y_{Standart}$	Z_1	Z_2	Z_3
2010	-1,1178557	-1,06478	-1,20823	-0,93714
2011	-1,0373357	-1,01491	-1,03417	-0,8897
2012	-0,9354333	-0,96505	-0,96446	-0,84043
2013	-0,8104379	-0,87464	-0,90826	-0,77894
2014	-0,6437773	-0,79986	-0,77855	-0,69665
2015	-0,5086405	-0,68887	-0,63874	-0,61394
2016	-0,3408803	-0,61353	-0,58889	-0,53274
2017	-0,2653699	-0,51276	-0,31324	-0,48914
2018	-0,1864383	-0,12303	0,016878	-0,24323
2019	0,00099377	0,284203	0,285522	0,035817
2020	0,12635575	0,578524	0,437218	0,341403
2021	0,56109054	0,983427	0,820467	0,720123
2022	0,9442632	1,225362	1,141181	0,87538
2023	1,83389335	1,623194	1,726266	1,328635
2024	2,37957227	1,962717	2,006998	2,720543

3-jadvaldagi standartlashtirilgan ko'rsatkichlardan foydalanib Bosh komponentalar usuli qo'llanildi (4-jadval).

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi.

4-jadval. Bosh komponentalar tahlili usuli natijalari⁴

Principal Components Analysis

n = 16

Eigenanalysis of the Correlation Matrix

Component Eigenvalue Proportion Cumulative

1 2.9506 0.9835 0.9835

2 0.0445 0.0148 0.9984

3 0.0049 0.0016 1.0000

Eigenvectors (component loadings)

PC1 PC2 PC3

X1standart 0.579 0.409 0.705

X2standart 0.579 0.402 -0.709

X3standart 0.573 -0.819 0.004

4-jadvalga ko'ra, 1-bosh komponenta (PC_1) — 2,9506 xususiy qiymatga ega bo'lib, umumiy dispersiyaning 98,35% qismini tushuntiradi. 2-chi va 3-komponentalar mos ravishda 1,48% va 0,16% dispersiyani tushuntiradi.

Demak, uchta mustaqil o'zgaruvchidan olingan ma'lumotlarning deyarli barchasi bitta komponenta (PC_1) da jamlangan.

PC_1 — barcha tarmoqlar umumiy iqtisodiy o'sish indeksiga bir xil kuchli ta'sir ko'rsatadi. PC_1 yuklamalari barcha tarmoqlar bo'yicha deyarli bir xil (0.573–0.579 oralig'ida) bo'lib, bu ularning umumiy iqtisodiy rivojlanish omiliga teng darajada hissa qo'shishini ko'rsatadi. Shunday qilib, PC_1 sektorlararo umumiy o'sish indeksini ifodalaydi.

Har bir yil uchun PC_1 qiymati komponent yuklamalari asosida aniqlanib, transport tarmog'i bilan bog'lanish darajasini ko'rsatadigan integral ko'rsatkich sifatida qo'llanildi.

PC_1 yordamida transport xizmatlari hajmi (standartlashtirilgan) uchun oddiy chiziqli regressiya tuzildi:

$$Y_{\text{standart}} = \beta_0 + \beta_1 \cdot PC_1 + e \quad (2)$$

Gretl dasturida olingan natijalar (5-jadval):

5-jadval. Regression tahlil natijalari⁵

Model 2: OLS, using observations 2010-2024 (T = 15)

Dependent variable: Ystandart

	Coefficient	Std. Error	t-ratio	p-value	
PC1	0.573373	0.0276499	20.74	<0.0001	***
Mean dependent var	0.000000	S.D. dependent var		1.035099	
Sum squared resid	0.472954	S.E. of regression		0.183800	
R-squared	0.968470	Adjusted R-squared		0.968470	
Log-likelihood	4.641980	Akaike criterion		-7.283961	
Schwarz criterion	-6.575911	Hannan-Quinn		-7.291503	
rho	0.664191	Durbin-Watson		0.684705	

4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif ishlanmasi



5-jadvaldagi PC_1 koeffitsiyentining p-qiymati 0,0001 ga teng bo'lib, juda ahamiyatli. $R^2 = 0,96847$

— model transport tarmog'idagi o'zgarishlarning 96,8% qismini tushuntiradi. Bu natijalar PC_1 orqali qurilish, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining birgalikdagi o'sish tendensiyasi transport xizmatlari hajmini deyarli to'liq tushuntira olishini ko'rsatadi.

Natijada, transport xizmatlari hajmining standartlashtirilgan qiymati PC_1 indeksiga bog'liqligi regressiyasi quyidagicha bo'ldi:

$$Y_{standart} = 0.573PC_1, \quad (3)$$

yoki,

$$Y_{standart} = 0,573 \cdot (0,579Z_1 + 0,579Z_2 + 0,573Z_3) + e = \\ = 0,332Z_1 + 0,332Z_2 + 0,328Z_3 + e \quad (4)$$

4-formulaga ko'ra har bir tarmoqning transport tarmog'iga ta'sirini aniqlaymiz.

Buning uchun dastlab (2) formuladan foydalanamiz. Bu yerda:

$$PC_1 = \beta_0 + \beta_1(a_{11}Z_1 + a_{12}Z_2 + a_{13}Z_3) \quad (5)$$

Shu sababi har bir ko'rsatkichning $Y_{standart}$ ga tasiri $\beta_1 \cdot a_{1j}$ ko'rinishda aniqlanadi. Agar buni foizda ko'rsak

$$Tasir(X_j) = \frac{\beta_1 \cdot a_{1j}}{\sum_{k=1}^m \beta_1 \cdot a_{1k}} \times 100\% \quad (6)$$

(4) va (6) formulalarga ko'ra har bir tarmoqning transport tarmog'iga ta'siri 33% ga teng.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, PC_1 iqtisodiy mazmuniga ko'ra "umumiy tarmoqlararo o'sish indeksi" bo'lib, transport xizmatlari hajmidagi yillik o'zgarishlarni deyarli to'liq tushuntira oladi.

Shu bilan, PCA va regressiya tahlili Surxondaryo viloyati misolida transport tarmog'i boshqa real sektorlar bilan kuchli iqtisodiy integratsiyada ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari transport tarmog'i va boshqa real sektorlar — qurilish, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari o'rtasida juda kuchli o'zaro bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Bosh komponentalar usuli (PCA) asosida

aniqlangan birinchi bosh komponenta PC_1 ushbu uch tarmoqning umumiy rivojlanish omilini ifodalaydi va u transport xizmatlari hajmidagi o'zgarishlarning 96,8% qismini tushuntira oldi. Bu holat, iqtisodiy integratsiya nuqtayi nazaridan, tarmoqlararo sinergiyaning yuqori darajada ekanini bildiradi.

Birinchi navbatda, qurilish sohasi transport infratuzilmasi rivojida bevosita investitsion baza vazifasini bajaradi. Yo'llar, ko'priklar, temiryo'l tarmoqlari va boshqa transport obyektlarining qurilishi nafaqat transport xizmatlari hajmini oshiradi, balki iqtisodiy faoliyatni hududlar bo'yicha teng taqsimlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarida qurilish ko'rsatkichlari PC_1 yuklamasida yuqori qiymatga ega bo'lishi uning transport sektoriga teng ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jaligi sektori ham transport tarmog'ining faoliyatida muhim o'rin tutadi. Mahsulot yetishtirish hajmining ortishi uni bozorga yetkazib berish hajmini ham oshiradi, bu esa transport xizmatlariga talabni kuchaytiradi. Ayniqsa, eksport salohiyati yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish xalqaro transport yo'laklarining samarali ishlashiga bevosita bog'liqdir. PCA natijalarida qishloq xo'jaligi yuklamasining qurilish sektori bilan bir xil darajada bo'lishi, ushbu tarmoqlarning transport xizmatlari rivojlanishidagi rolini tasdiqlaydi.

Sanoat tarmog'i esa transport sektoriga eng katta yuklama beruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarish hajmining oshishi mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga yetkazish hajmini ko'paytiradi. Shu sababli, transport infratuzilmasining sifatli ishlashi sanoatning raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish samaradorligi uchun muhim omil bo'lib qoladi. Tadqiqot natijalari sanoat yuklamasining ham qurilish va qishloq xo'jaligi bilan teng darajada ekanini ko'rsatdi, bu esa umumiy iqtisodiy rivojlanish omili sifatida barcha uch tarmoqning ahamiyatini belgilaydi.

Natijalarni xalqaro tajribalar bilan solishtirganda, transport tarmog'ining real sektor bilan integratsiyasi rivojlangan davlatlarda ham iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida transport-logistika tizimining rivoji qurilish, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining eksport salohiyatini oshirishda asosiy omil sifatida baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, Surxondaryo viloyatida transport infratuzilmasi va real sektor tarmoqlarini uyg'un rivojlantirish mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.



Umuman olganda, PCA yordamida aniqlangan umumiy iqtisodiy o'sish indeksi transport tarmog'i va boshqa real sektor tarmoqlari o'rtasidagi bog'liqlikni yuqori aniqlikda baholash imkonini berdi. Bu yondashuv rejalashtirish, investitsiya siyosati va mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari transport tarmog'i hamda qurilish, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik mavjudligini aniq ko'rsatdi. Bosh komponentalar usuli (PCA) yordamida aniqlangan birinchi bosh komponenta (PC_1) ushbu uch sektorning umumiy rivojlanish omilini ifodalab, transport xizmatlari hajmidagi o'zgarishlarning 96,8 % qismini tushuntira oldi.

Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

Qurilish sohasi transport infratuzilmasining rivojlanishida asosiy kapital investitsiya manbai sifatida bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining ortishi transport xizmatlariga talabni oshirib, logistika tizimining samaradorligini belgilaydi.

Sanoat tarmog'i ishlab chiqarish hajmining o'sishi orqali transport tizimiga yuklama beradi va uning samarali ishlashini talab qiladi.

Uchala sektor ham transport xizmatlari hajmiga deyarli teng darajada ta'sir ko'rsatadi, bu esa PC_1 yuklamalarida o'z ifodasini topgan.

PCA yondashuvi multikollinearlik muammosini bartaraf etish va sektorlararo umumiy o'sish indeksini yaratishda samarali vosita ekanini isbotladi.

Tavsiyalar. Transport infratuzilmasini kompleks rivojlantirish — qurilish, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining o'sish sur'atlariga mos ravishda transport yo'laklari, logistika markazlari va yuk terminali quvvatlarini oshirish zarur.

Sektorlararo rejalashtirish tizimini joriy etish — transport xizmatlari hajmini oshirish strategiyalari boshqa tarmoqlar rivojlanish dasturlari bilan uyg'un holda ishlab chiqilishi lozim.

Statistik monitoringni kuchaytirish — sektorlararo integratsiya jarayonlarini doimiy kuzatish uchun transport, qurilish, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlariga oid yillik ko'rsatkichlar tizimli ravishda tahlil qilinishi kerak.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish — raqamli logistika tizimlari, sun'iy intellekt asosida yuk oqimlarini boshqarish, avtomatlashtirilgan transport monitoringi tizimlarini qo'llash orqali samaradorlik oshiriladi.

Ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish — kelgusida vaqt qatorlari modellaridan va panel ma'lumotlar tahlilidan foydalanib, sektorlararo o'zaro ta'sirning dinamik xususiyatlari chuqurroq o'rganilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Button K. Transport Economics. 3rd ed. Cheltenham: Edward Elgar, 2010. — 528 p.
2. Rodrigue J-P., Comtois C., Slack B. The Geography of Transport Systems. 5th ed. New York: Routledge, 2020. — 456 p.
3. World Bank. Agricultural Logistics in Developing Countries: Challenges and Solutions. Washington, DC: World Bank Group, 2017. — 102 p.
4. UNIDO. Industrial Development Report 2019: Demand for Manufacturing. Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2019. — 192 p.
5. Karimov A., Islomov B., Yusupov S. "Transport tarmog'i va qurilish sektori o'zaro bog'liqligi: Surxondaryo viloyati misolida". O'zbekiston Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnal, №3, 2022, pp. 45–56.
6. Xolmatov M. "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish xarajatlari va transport xizmatlari samaradorligi". Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va innovatsiyalar, №2, 2021, pp. 31–38.
7. Jolliffe I. Principal Component Analysis. 2nd ed. New York: Springer, 2002. — 487 p.
8. Santos G., Behrentz E., Rodríguez M. "Environmental Kuznets Curve for Transport Emissions: Evidence from NOx Data". Transportation Research Part D, Vol. 17, No. 4, 2012, pp. 315–320.
9. Chen X., Li Q. "Measuring Transport Efficiency Across Chinese Provinces Using PCA and Regression Analysis". Journal of Transport Geography, Vol. 68, 2018, pp. 45–54.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>